
Hurmatli shahrimiz fuqarolari hamda mehmonlari!!!

Agarda yashash uyingizda tabiiy gazning hidini sezib qolsangiz zudlik bilan quyidagilarni amalga oshirishingizni so'rab qolamiz:

- zudlik bilan eshik va derazalarni ochib xonani shamollating, gaz plitalari va isitish pechlarini gaz tarmog'idan o'chiring;

- xonada elektr jihozlarni yoqmang, yoniq bo'lsa o'chirmang, xonada uchqun chiqaruvchi jihozlardan foydalanmang;

- 104 telefon raqami orqali shahar gazlashtirish idoralari avariya-ta'mirlash guruxiga xabar bering.

Hurmatli fuqarolar, ko'zimizga arziyas ko'ringan sabablar ham nohush holatlarni keltirib chiqarishi mumkinligini aslo unutmang. Aholini tabiiy va is gazidan zaharlanishini, yong'in, chaqnash holatlarini oldini olish tadbirlari nafaqat mutasaddi tashkilotlar tomonidan, balki har bir xonadon egalari va barcha fuqarolar tomonidan amalga oshirilishi zarurdir. Aziz yurtdoshlar, barchangizni yuqorida aytib o'tilgan tadbirlarida ogohlik va faollikka chaqiramiz.

O.Xodjayev. Farg'ona shahar huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, xarbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalar guruhi rahbari

kapitan A.Apponov Farg'ona shahar FVB xodimi

2022-12-19 11:02:43